**“BAHJAT UL-LUGAT” IS AN IMPORTANT LEXICOGRAPHIC SOURCE ON THE WORKS OF ALISHER NAVAI****NODIR NURIDDINOV***PhD, Associate Professor**TSUOS\**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: [nur\\_nn@mail.ru](mailto:nur_nn@mail.ru)***SHAISLAM AKMALOV,***candidate of political sciences, Associate Professor**International Islamic Academy of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: [shaislamakmalov@gmail.com](mailto:shaislamakmalov@gmail.com)***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** *Alisher Navoi, "Bahjat ul-lugat", Chigatoy (old Uzbek), Persian, Arabic, Mongolian, explanatory dictionary.*

**Received:** 15.05.24

**Accepted:** 17.05.24

**Published:** 19.05.24

**Abstract:** Nizamiddin Mir Alisher Navoi is an artist of words who created the spiritual image of the Turkic people with his eternal works and his unique genius in the history of world thought, and whose noble ideas he glorified in his works have not lost their importance to this day. This great genius, who used more than 26,000 words in his creative heritage, has been surprising the people of the world for more than five centuries with the deep philosophical observation of his works, the wide range of meanings and the boundless sea of eloquence in his poetic heritage. It is difficult to find another artist whose works are as widespread as Alisher Navoi, whose books are kept in almost every corner of the world. In the last years of Hazrat Navoi's life, a dictionary was created for the language of his works, which is a clear example of the great interest in his work. One of such rare dictionaries is "Bahjat ul-lugat" in Chigatoy-Persian, compiled by Fathali Qajar Qazvini based on the works of Navoi in the 19th century. In this article, the Tehran manuscript copy of the dictionary is analyzed, the history of the dictionary's writing, its components, the order of giving words in the dictionary, the total number of words, the order of giving

examples from Navoi's works, Turkish, Arabic, Persian and Mongolian words in the dictionary, as well as interesting information about geography, history, ethnography is provided.

---

**“BAHJAT UL-LUG‘AT” – ALISHER NAVOIY ASARLARIGA OID MUHIM  
LEKSIKOGRAFIK MANBA**

**NODIR NURIDDINOV**

*dotsenti, PhD*

*TDSHU*

*Toshkent, O‘zbekiston*

*E-mail: [nur\\_nn@mail.ru](mailto:nur_nn@mail.ru)*

**SHAISLAM AKMALOV**

*dotsenti, s.f.n*

*O‘zXIA*

*Toshkent, O‘zbekiston*

*E-mail: [shaislamakmalov@gmail.com](mailto:shaislamakmalov@gmail.com)*

---

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, “Bahjat ul-lug‘at”, chig‘atoy (eski o‘zbek) tili, fors tili, arab tili, mo‘g‘ul tili, izohli lug‘at.

**Annotatsiya:** Nizomiddin Mir Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o‘zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma‘naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g‘oyalari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan so‘z san‘atkoridir. O‘z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug‘at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma‘no-mohiyatning keng ko‘lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi. Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining so‘nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug‘at ishlanganligi uning ijodiga bo‘lgan katta qiziqishning yorqin namunasidir. Shunday noyob lug‘atlardan biri Fathali Qojar Qazviniy tomonidan Navoiy asarlari asosida XIX asrda tuzilgan chig‘atoycha-forscha “Bahjat ul-lug‘at” hisoblanadi. Mazkur maqolada lug‘atning Tehron qo‘lyozma nusxasi tahlilga tortilib, lug‘atning yozilish tarixi, uning tarkibiy qismlari, lug‘atda so‘zlarning berilish tartibi, jami keltirilgan so‘zlar miqdori, Navoiy asarlaridan misollarning berilish tartibi, lug‘atdagi turkiy,

arabcha, forsha va mo'g'ulcha so'zlar, shuningdek, geografiya, tarix, etnografiyaga oid qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi.

---

**«БАХДЖАТ УЛ-ЛУГАТ» — ВАЖНЫЙ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК  
ПО ТВОРЧЕСТВАМ АЛИШЕРА НАВОИ**

**НОДИР НУРИДДИНОВ**

*PhD, доцент*

*Ташкентского государственного университета востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [nur\\_nn@mail.ru](mailto:nur_nn@mail.ru)*

**ШАИСЛАМ АКМАЛОВ**

*к.п.н, доцент*

*Международной исламской академии Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [shaislamakmalov@gmail.com](mailto:shaislamakmalov@gmail.com)*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Алишер Навои, «Бахджат ул-лугат», Чигатой (староузбекский), персидский, арабский, монгольский, толковый словарь.

**Аннотация:** Низамиддин Мир Алишер Навои – художник слова, своими вечными произведениями и своим неповторимым гением в истории мировой мысли создавший духовный образ тюркского народа и чьи благородные идеи, прославленные в своих произведениях, не потеряли своего значения и по сей день. Этот великий гений, использовавший в своем творческом наследии более 26 000 слов, уже более пяти столетий удивляет людей мира глубокой философской наблюдательностью своих произведений, широтой смыслов и безбрежным морем красноречия в поэтическом наследии. Трудно найти другого художника, творчество которого было бы столь же широко распространено, как Алишер Навои, чьи книги хранятся практически во всех уголках мира. В последние годы жизни хазрата Навои был создан словарь языка его произведений, что является ярким примером большого интереса к его творчеству. Одним из таких редких словарей является «Бахжат ул-лугат» на чигатой-персидском языке, составленный Фатхали Каджаром Казвини на основе сочинений Навои XIX века. В данной статье анализируется тегеранский рукописный экземпляр словаря, история написания словаря, его составляющие, порядок дачи слов в словаре, общее количество слов, порядок приведения

примеров из произведений Навои. В словаре представлены арабские, персидские и монгольские слова, а также интересная информация по географии, истории, этнографии.

### KIRISH

Amir Nizomiddin Alisher Navoiy (844 - 906/1441 - 1501) faqat o'zbek xalqi emas, balki butun turk olamining buyuk shoiri, mutafakkiri sifatida jahon badiiy tafakkuri tarixida o'z o'rni va maqomiga ega ijodkordir. Alisher Navoiy butun dunyo qarshisida turkiy (o'zbek) tilning boy imkoniyatlarini ko'rsatib bera olgan, arab, fors tillaridan hech qaysi jihatdan kam bo'lmagan go'zal til ekanligini isbotlab bergan buyuk olimdir [1, b.3].

Alisher Navoiy asarlari zamonlar osha olimlarning tadqiqot ob'yekti bo'lib, dunyo miqyosida katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Buyuk shoirning asarlarini tushunish va tahlil qilish uchun lug'atlarga ehtiyoj seziladi. Alisher Navoiy asarlari yuzasidan uzoq va juda boy leksikografik an'ananing mavjud bo'lishi juda nodir hodisadir. Hatto, rang-barang lug'atlarga boy bo'lgan arab va fors leksikografiyasi tarixida ham ma'lum adib yoki bir necha adiblar asarlari asosida tuzilgan bunday lug'atlar mavjud emas. Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar sirasiga quyidagi lug'atlar kiradi:

1) Tole Imoni Hiraviyning "Badoyye' ul-lug'at" (XV asr) nomli chig'atoycha-forscha lug'ati; 2) "Abushqa" nomi bilan mashhur bo'lgan chig'atoycha-turkcha izohli lug'at (XVI asr, Turkiya); 3) Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" deb nomlangan o'zbekcha-forscha lug'ati (XVII asr); 4) Muhammad Rizo Xoksoning "Muntaxab ul-lug'ot" nomli izohli lug'ati (XVIII asr); 5) Mirzo Mahdiyxonning "Sangloh" nomli chig'atoycha-forscha lug'ati (XVIII asr) ("Lug'ati atrakiya", "Xulosayi Abbosi"lar "Sangloh" ning qisqa varianti); 6) Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoy va turki usmoniy" (XIX asr) («Chig'atoycha-turkcha lug'at») kabi va boshqa lug'atlar shu jumladandir [2, b.14-19].

### ASOSIY QISM

Navoiy hali hayotlik chog'idayoq u haqida ko'plab kitoblar yozildi, asarlarining tushunilishiga yordamchi bo'lish maqsadida lug'atlar tartibga solindi. Masalan, Sulton Husayin Boyqaro "Risola" nomli asarini Navoiyga bag'ishlagan. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirayi Davlat-shoh"ida, Jomiyning bir qancha asarlarida va devonlari uchun qalamga olgan debochalarida Navoiy haqida yozilgan.

Alisher Navoiyning asarlaridagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'z va so'z birikmalarini izohlash maqsadida tayyorlangan bir qancha lug'atlar mavjud bo'lib, ularning katta qismida so'zlar o'zaklari (negizlari) bilan emas, Navoiy asarlaridagi shakllari bilan ko'plab misollar orqali berilgan.

Navoiy asarlari uchun yozilgan lugʻatlarning bir qismi fors tilidadir. Ularning asosiylari Tole Imoni Hiraviyning “Badoyye’ ul-lugʻat”i, Mirzo Muhammad Mahdiyxon Astrobodyning “Sangloh”i, Muhammad Hoyi’ning “Xulosayi Abbosiy”i, Fazlulloh Xonning Chigʻatoycha-Forscha lugʻati, Fathali Qojar Qazviniyning “Bahjat-ul lugʻat”i (Lugʻati atrokiye) va Shayh Muhammad Solih-i Isfahoniyning “At-tamgʻayi Nosiriy” nomli lugʻatidir.

Muhammad Hoyi’ning “Xulosayi Abbosiy”i, Fathali Qojar Qazviniyning “Bahjat-ul lugʻat” (Lugʻati atrokiye), Shayh Muhammad Solih Isfahoniyning “At-tamgʻayi Nosiriy” nomli asarlari ham “Sangloh” lugʻati asosida yozilgan forscha-chigʻatoycha lugʻatlardandir. Bulardan “Bahjat-ul lugʻat”ning muallifi Fathali Qojar Qazviniy Navoiyning asarlari ustida uzoq yillar davomida ishladi, uch yil davomida turkmanlar orasida yurib turkchani oʻrganganidan soʻng mazkur asarni yaratdi [3, s.198].

“Bahjat ul-lugʻat” 1862-yilda Fathali Qojar Qazviniy tarafidan forscha-chigʻatoy turkchada yozilgan va fors tilidagi chigʻatoycha lugʻatlarning eng kattasidir. Lugʻat Alisher Navoiy asarlariga asoslanib tuzilgan va uni tuzishda “Sangloh” lugʻatidan foydalanilgan. Lugʻatning Eronda besh nusxasi mavjud boʻlib, Tyuri va Romaskevich nusxalari bilan birgalikda lugʻatning fanga 7 yozma nusxasi maʼlumdur [4, s.18].

Fathali Qojar Qazviniy lugʻatining “Bahjat ul-lugʻat” nomli bir nusxasini Istanbulda topib, oʻzi bilan birga Vengriyaga olib ketgan Tyuri Budapeshtda nashr ettirgan va bu asari orqali ilk marotaba lugʻatni ilm-fan dunyosiga tanitgan [5, s.18]. Ayni soʻzlik Erondagi turkiy xalqlarga Navoiy asarlarini oʻqib tushunish oson boʻlishi uchun yaratilgan.


Mazkur noyob lugʻatning ikkinchi nusxasi 1914 yil Tehron A.A.Romaskevich tomonidan aniqlangan boʻlib, hozirgi kunda Sankt-Peterburg universiteti musulmon qoʻlyozmalar kutubxonasida № 1177 raqam ostida saqlanadi [6, s.84].

Fathali Qojar Qazviniy qalamiga mansub “Bahjat ul-lugʻat”ning Tehron nusxasi har sahifasi 17 satrdan iborat boʻlib, yirik nasx xatida yozilgan. Lugʻat yevropacha ohorlangan sargʻish rangli qogʻozga bitilgan hamda izohlanayotgan soʻzlar, boʻlim sarlavhalari, muqaddimadagi aksariyat atoqli otlar, Alisher Navoiy asarlarining nomlari qizil siyoh bilan yozilgan. Lugʻatning ushbu nusxasida matn tarkibida ham, qoʻlyozmaning chetlarida ham nastaʼliq xatida yozilgan koʻplab tuzatish va qoʻshimchalar koʻzga tashlanadi.

Qoʻlyozma toʻrt qismdan iborat:

1. Muallif soʻzboshisi
2. Chigʻatoycha-forscha lugʻat
3. “Sangloh” lugʻatining muallifi Mirzo Mahdixonga tushunarsiz boʻlgan 12 soʻzning izohi
4. A.Navoiy asarlarida uchraydigan forscha soʻzlar lugʻati.

Qo‘lyozmaning birinchi qismi – muallif so‘zboshisi Alisher Navoiy “Xamasa”sidagi “Saddi Iskandariy” dostonida kelgan quyidagi misra bilan boshlanadi:




Ya’ni:

Xudoyo, musallam xudoliq sanga, Birov shahki, da’bi gadoliq sanga.

Xudovandi bemislu monandsen, Xudovandlarg‘a xudovandsen [1a]

So‘ngra qo‘lyozmaning mundarijasi quyidagi shaklda davom etadi:



فہرست کتاب بہجت اللغتہ

فتحعلی بن کلبعلی بن مرشد قلی بن فتحعلی قاچار قزوینی از طایفہ اسپانلو // قوللو قد اموندا // عرض قیلور کیم //

سلطنت بحرینیک در کیتای // و خلافت سپہری نینگ خورشید جہان آرای [1a]

Asarning kirish qismida chig‘atoy tilida Nasriddinshoh qofiyali nasrda she’rlar bilan maqtalgandan so‘ng muallif o‘zining tarjimai holi, chig‘atoy tilini o‘rganish tarixi va asarning yozilishi haqida qisqacha bayon qiladi [1a-11a].

Fathali ibn Kalbali ibn Murshidquli ibn Fathali Qojar Qazviniy Safaviylar qo‘l ostidagi Qojar qabilasining Qoraqyunlu urug‘idan kelib chiqqan. Muallif lug‘at ustida to‘rt yil ishlab, uni milodiy 1862 yili (h.q. 1278 yili sha’bon oyida) Xurosonda (aynan Mashhad shahrida) tugallagan [7, s.85-88]. Asar turkshunoslikda “chig‘atoy turkiysi” bo‘yicha yaratilgan eng yaxshi lug‘atlardan biri sifatida tan olinadi.


Muqaddimada muallif Alisher Navoiyning yigirma yetti asarini sanab o‘tadi. Qo‘lyozmaning ikkinchi, ya’ni lug‘at qismiga jami 7694 ta so‘z kiritilgan. Ularning ma’nosini ochiqlash uchun Alisher Navoiyning to‘rtta devoni, "Xamsa"si, nasriy asarlari – “Mahbub ul-qulub”, “Tarix-i muluk-i ajam”dan, shuningdek, Lutfiy, Mir Haydar, Bobur, Husayn Boyqaro, Iskandar Mirzo, Banoiy, Kamoliy, Ubaydixon, Fuzuliy, Soqiy she’rlaridan misollar beradi. Ora-



chora forsiy manbalarga ham murojaat qilgan. Qayd etilishicha, lugʻatda keltirilgan soʻzlarning ikki mingtachasiga manbadan misollar keltirilmagan.

Fathali Qojar eski oʻzbek tili ("chigʻatoy turkiysi") bilan Eron turklari lahjasi orasidagi oʻxshashlik va farqlarga ham eʼtibor qaratadi. Masalan, uning koʻrsatishicha, eski oʻzbek tilidagi *ort (olov), cağir, tört, qirq, elli* soʻzlari ularning tilida *ot, çaxir, dört, qirx, älli* shaklida qoʻllangan [8, b.65].


Qoʻlyozmaning ikkinchi qismi, yaʼni chigʻatoycha-forscha lugʻat qismi quyidagicha boshlanadi:



کتاب لغت موسوم به بهجت اللغة

که حضرت امیر نظام الدین علی شیر المتخلص به نوائی تالیفات خود را بیست و دو جلد باین زبان نمودہ العبد فتح علی قاجار فریونی جمع نموده آداب و معلوماً آن در فهرست عرض شدہ بحمدک فتح ابواب المعانی /// نصیب آیت کونکوما فتح اولماق انی بسم اله دیکیل وقویقل قدم [11b]

Mazkur lugʻatga nafaqat Alisher Navoiy asarlaridagi tub soʻzlar, balki turli soʻz yasovchi va shakl oʻzgartiruvchi qoʻshimchali yasama soʻzlar ham kiritilgan. Fathali Qojar soʻzlarni tartiblashda oʻzak-negiz tamoyilini nazarda tutib, soʻzlarni faqat boshlangʻich ikki harfiga koʻra alifbo tartibida joylashtirgan. Har bir harf boblarga boʻlingan holda quyidagi tartibda berilgan, ammo *آ* bilan boshlanuvchi bobda soʻzlarni keltirishda alifbo tartibiga amal qilinmagan (Asraban kabi) [11b]



Lugʻatning qiymati soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishning ifodalanishi bilan oʻlchanadi. Mazkur lugʻatda ham soʻzlarni aniq va toʻgʻri oʻqilishini taʼminlash uchun arabcha harakatlar oʻz oʻrnida ishlatilgan. Lugʻatda unlilarni ifodalashning quyidagi tizimi kuzatiladi [9, s.93]:

a – آ , ا —, masalan, آسراغان آنلار

ä – اَ , اِ , أرسلان

e – اِي , اِيْ , اِيْ , دِيْكَرْمَنْ , اِيْر كَاكِيْ , اِيْ

i – اِ , اِيْ , اِيْ , دِيْرِيْم , masalan,

o – اُو , اُوْ , بُوْلغاي , اُوغُوْر -

ö – اُوْ , كُوْر كَالِيْ -

y – اُو , اُوْ , بُوْغرا , اُوْغُوْر -

ÿ – اُوْ , كُوْن -

Har bir soʻzning izohi asosan *يعنى* yoki *بمعنى* kabi bir xil shakldagi soʻz va iboralar bilan boshlanadi. Soʻzning keyingi maʼnolari *نيز* soʻzi bilan davom etadi. Mirzo Mahdixonning “Sangloh” lugʻatidagi 12 ta tushunarsiz boʻlib qolgan soʻzning ayrimlari Fathali Qojar uchun ham noaniqligicha qolgani kuzatiladi. Muallif ayrim soʻzlarning maʼnosi tushunarsiz ekanini fors tilida quyidagicha izohlaydi: *نمی دانم چه معنی دارد هر کس فهمید بنویسد، یقین ندارم چه معنی دارد: بایاغ، ایڈور، اُولتا، آجار، چاپون، قاریمچی.*

Muallif lugʻatda arabcha va forscha soʻzlarni ham keltirib, bu holatni quyidagicha izohlaydi: *چون در تالیفات حضرت امیر بود بقلم آمد لغت عربی (فارسی) است*

*“Arabcha (forscha) soʻz boʻlib, hazrat Amirning asarlarida boʻlgani uchun keltirilgan”.* Eʼtiborsizlikdanmi yoki soʻzni yaxshi bilmaslikdanmi barcha arabcha va forscha soʻzlardan soʻng bu izoh kuzatilmaydi.

Muallif chigʻatoy tiliga kirgan moʻgʻulcha soʻzlarga ham alohida eʼtibor qaratadi. Arabcha va forscha soʻzlardan farqli ravishda A.Navoiy asarlarida uchraydigan moʻgʻulcha soʻzlarni lugʻatga kiritish bilangina qanoatlanmaydi, balki chigʻatoy tilidagi moʻgʻulcha soʻzlar lugʻati tuzishni rejalashtiradi. Fathali Qojar lugʻatidagi 200 ga yaqin moʻgʻulcha soʻzlarning 20 tadan ortigʻi mavjud chigʻatoy tiliga oid lugʻatlarda qayd etilmagan [10, s.94].

Fathali Qojar turdosh otlar va ularning maʼnolari bilan bir qatorda oʻz lugʻatida katta miqdordagi geografiyaga oid soʻzlar haqida ham maʼlumot beradi. J.Tyurining eʼtiroficha, Fathali Qojarning lugʻati Oʻrta Osiyoning qadimgi va yangi geografiyasiga oid juda qimmatli maʼlumotlarni jamlagan butun boshli geografik lugʻatdir. A.A. Romaskevich “Bahjat ul-lugʻat”ni geografik lugʻat ekaniga toʻliq qoʻshilmasada, ammo lugʻat tarkibida hammaga maʼlum joy nomlari (قَفْجاق، آمو، آلمالیغ) bilan bir qatorda unchalik maʼlum boʻlmagan quyidagi geografik nomlar ham uchrashini qayd etadi [11, s.97]:

آی توغدی - ... نام محلی از بلوکات کابل [31a]

آقراي - نام ولایتی است از بلاد قیریم مسکن تا تاریخ [35b]

آویا - قصبه از توابع هرات [38b, 39a]

اُولنک - نام محلی مابین قندهار و کابل که مسکن طایفه هزاره میباشد [50a]



ایپا قوروغی - قصبه از سمرقند [65a]

ایلان اوتی - نام محلی از توابع سمرقند [82a]

بابغیز - محرف با دغیس است [90a,b]

یول گۆری - پُلی باشد مابین ولایت خوار و سمنان سرحد عراق و خراسان [400a]

Afsonaviy turkiy va mo'g'ul qabilalariga oid geografik va tarixiy ma'lumotlardan tashqari lug'atda turkiy qabilalarga oid ayrim qiziqarli etnografik ma'lumotlar ham keltirilgan.

*Dasturxon va ziyofat odobiga oid ma'lumotlar:*

ایل چغتای: در ایل چغتای رسم چنان است یا مُرغ یا گوسفند یا بره یا امثال آن که پخته میشود میر مجلس چنانچه بخواد بشخصی از راه التفات خصه بدهد باید بالهای آن در سر طعام باشد اگر بال اورا التفات نکند از سایر اعضای مطبُوخ التفات بشود مثل اینست که هیچ التفات در حق آن شخص نشده است و آن میر مجلس را خسیس و لئیم می شمارند و بان طعام التفاتی و اعتنایی نمی کنند. [63a]

*Turkiy qabilalardagi to'y qo'shiqlari haqida:*

اُولَنگ: یک نوع سرودبست که در میان اتراک می خوانند و آن در عروسیها در حجله عروس دختران در وصف داماد تصنیفها خوانند و در خانه داماد برقص عروس را و می دارند. [50b]

*Vafot etgan insonning qabriga qora bodom qo'yishga oid qadimiy odat haqida:*

قراپادام: در قدیم رسم بوده شخصی که فوت میکرده در میان تابوت بالای جنازه آن شخص بادام سیاه می گذاشتند. [274b]

Qo'lyozma ikki maqola bilan tugaydi: birinchisi – A. Navoiyning she'riy asarlarida uchraydigan va Mirzo Mahdixon tomonidan izohlanmagan bir qancha so'zlarning batafsil izohi va ikkinchisi esa – A. Navoiyning “Chor devon”iga qo'shimcha sifatida kiritilgan bir necha yuz forscha so'zlar ro'yxati.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Fathali Qojar Qazviniyning “Bahjat ul-lug'at” asari uzoq yillik mehnat natijasi bo'lib, eski o'zbek tili (chig'atoy turkiysi) ga oid eng yaxshi lug'atlardandir. “Sangloh” lug'atida ma'nosi keltirilmagan 12 so'zning izohlangani mazkur lug'atning yutuqlaridan hisoblanadi. Turkiy so'zlar bilan bir qatorda arabcha, forscha, mo'g'ulcha so'zlarning ham izohlanib misollar keltirilgani lug'at qiymatini oshiradi. “Bahjat ul-lug'at” nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik, balki geografiya, tarix va etnografiyaga oid qiziqarli ma'lumotlarni o'zida jamlagani bilan diqqatga sazovor lug'atlardan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] – Sirojiddinov Sh. (2011). Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr. – B. 3.

[2] – Qo'ziyev U.Ya. (2016). O'zbek tili izohli lug'atlarida o'zlashma so'zlar tahlili. – Namangan, – B. 14-19.

[3] – Fatma Özkan (1996). Nevayi eserleri için yazılmış bir lügat: Der beyân-l istilâhât-i emlahu'sucarâ mevlânâ Nevâyi. Bilig-1/Bahar, – S. 198.

[4] – Yasemin Yıldırım. (2020). Alişer Navâiy asarlari tilining izâhli luğati'nin “b” maddesinin incelenmesi. – Istanbul, – S. 18.

[5] – Yasemin Yıldırım. (2020). Alişer Navâiy asarlari tilining izâhli luğati'nin “b” maddesinin incelenmesi. – Istanbul, – S. 18.

[6] – Ромаскевич А.А. (1928). Новый чагатайско-персидский словарь // Мир-Али-шир. Сборник к пятисотлетию со дня рождения. – Л., Издательство академии наук СССР. – С. 84.

[7] – Ромаскевич А.А. (1928). Новый чагатайско-персидский словарь // Мир-Али-шир. Сборник к пятисотлетию со дня рождения. – Л., Издательство академии наук СССР. – С. 85-88.

[8] – Sodiqov Q. (2013). Tarixiy leksikografiya. – T., TDSHI. – B. 65.

[9] – Ромаскевич А.А. (1928). Новый чагатайско-персидский словарь // Мир-Али-шир. Сборник к пятисотлетию со дня рождения. – Л., Издательство академии наук СССР. – С. 93.

[10] – Ромаскевич А.А. (1928). Новый чагатайско-персидский словарь // Мир-Али-шир. Сборник к пятисотлетию со дня рождения. – Л., Издательство академии наук СССР. – С. 94.

[11] – Ромаскевич А.А. (1928). Новый чагатайско-персидский словарь // Мир-Али-шир. Сборник к пятисотлетию со дня рождения. – Л., Издательство академии наук СССР. – С. 97.

[12] – Nuriddinov, N. (2019). Reduplication of adverbs, past and present participles in Persian language. *Theoretical & Applied Science*, (12), 634-639.

[13] – Nodir Mr, N. (2020). Structural-semantic analysis of polynomial verbal copulative phraseologies in Persian language. *The Light of Islam*, 2020(1), 170-177.

[14] – Nodir Mr, N. (2020). Copulative compounds formed by prepositional interfixes in Persian language. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 71.